

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.03/2025.27.12.T.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

KENJAYEV AVAZ SAYITMURAT O‘G‘LI

**KIYIMBOP CHARM OLIHDA TUYAQUSH TERILARIGA ISHLOV
BERISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**05.06.03 -Teri, mo‘yna, poyabzal va teri-galantereya buyumlari texnologiyasi
(texnika fanlari)**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya
avtoreferatining mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Kenjayev Avaz Sayitmurat o‘g‘li

Kiyimbop charm olishda tuyaqush terilariga ishlov berish texnologiyasini
takomillashtirish.....3

Кенжаев Аваз Сайитмуратович

Совершенствование технологии выделки шкур страуса для одежного
ассортимента 21

Kenjayev Avaz Sayitmuratovich

Improving the technology of ostrich skin processing for clothing leather
.....41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yhati

Список опубликованных работ

List of published works.....45

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.03/2025.27.12.T.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

KENJAYEV AVAZ SAYITMURAT O‘G‘LI

**KIYIMBOP CHARM OLIHDA TUYAQUSH TERILARIGA ISHLOV
BERISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**05.06.03 -Teri, mo‘yna, poyabzal va teri-galantereya buyumlari texnologiyasi
(texnika fanlari)**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/T5712 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<http://www.ttyysi.uz>) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Begaliyev Xashim Xikmatdjanovich
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Xudayberdiyeva Dilfuza Baxramovna
texnika fanlari doktori, professor

Shoyimov Shohrux Shuhratovich
texnika fanlari falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSC.03/2025.27.12.T.21.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026 yil «31» mart soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (manzil: 100100, Toshkent shahri, Shoxjaxon ko'chasi 5. Tel.: (+99871) 253-06-06, faks: (+99871) 253-36-17, e-mail: titlp_info@edu.uz TTYSI ma'muriy binosi, 2-qavat, 222-xona).

Dissertatsiya ishi bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 283 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent shahri, Shoxjaxon ko'chasi 5. Tel.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08 e-mail: titlp_info@edu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «16» mart kuni tarqatildi.

(2026 yil «16» mart №283 raqamli reyestr bayonnomasi).



KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda charm va mo‘yna ishlab chiqarish jadal rivojlanib bormoqda, shu jumladan, tuyaqush charmlarini ishlab chiqarish Janubiy Afrika Respublikasi, Eron Islom Respublikasi, Pokiston va boshqa davlatlarda rivojlanib bormoqda va dunyo bo‘yicha 1000000 dan ziyod ekzotik tuyaqush charm ishlab chiqarilmoqda¹. Ekzotik tuyaqush charmlari ishlab chiqarishda, oshlashga tayyorlov jarayonlarining eng asosiylaridan biri bo‘lgan pikellash texnologik jarayonlari tadqiqotlari asosida tuyaqush teri xomashyosiga ishlov berish texnologiyasini takomillashtirish va uni amaliyotga joriy etish muxim xisoblanmoqda. Shu bilan birga, tuyaqush teri xomashyosining o‘ziga xos jihatlarini hisobga olgan holda kiyimbop tuyaqush charmlarni ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Dunyoda ekzotik charm ishlab chiqarishda tuyaqush terilarining gistologik tuzilishi, dastlabki ishlov berish texnologiyasi, navlari, yashash sharoitining tayyor charm fizik-kimyoviy xossalriga ta’siri va tuyaqush terisini pikellash texnologiyasini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar yetarlicha olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, jumladan kiyimbop charm olishda tuyaqush terilariga ishlov berish texnologiyasini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Kimyoviy moddalar sarfini kamaytirish, ekologik xavfsiz va resurstejamkor texnologik yechimlarni joriy etish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda ishlab chiqarilayotgan charm turlari assortimentini kengaytirish, energiya sarfini kamaytirish, samarador texnologiyalar va mamlakatimiz eksport salohiyatini yanada oshirish yuzasidan keng qamrovli chora – tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan, “Hududlarda charm mahsulotidan poyabzal va charm-attorlik tayyor mahsulotlari, shuningdek, import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishdagi mavjud bo‘shliqlarni to‘ldirish orqali 2026 yilga borib sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini oshirish. Bunda, tayyor charm mahsulotlarini ishlab chiqarishni 2,3 barobarga oshirish” bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Charm ishlab chiqarish yo‘nalishi bo‘yicha qo‘yilgan vazifalarni amalga bajarishda, jumladan, mahalliyashtirilgan tuyaqush teri xomashyolaridan samarali foydalanish, yuqori sifat ko‘rsatkichlariga ega, raqobatbardosh eksport talablariga javob beruvchi ekzotik tuyaqush charmlarini ishlab chiqarish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni va 2023 yil 11 oktabrdagi PQ-331-son “Charm-poyabzal va mo‘ynachilik sohalarida islohotlarni yanada jadallashtirish va sohaning eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2021 yil 8 fevraldagi PQ-4982-son «Charm-poyabzal va mo‘ynachilik sohalarini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi, 2018 yil 3 maydagi PQ-3693-son «Charm-poyabzal va mo‘ynachilik sohalarini rivojlantirish va eksport salohiyatini oshirishni yanada rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari, hamda mazkur

¹ <http://www.Worldostrich.org/download/woaleathergrade.pd>. (WORLD OSTRICH ASSOCIATION)

yoʻnalishga tegishli boʻlgan meyoriy – huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi boʻyicha tadqiqotlar fan va texnologiyalar rivojlanishining II «Energetika, energiya va resurs-tejamkorlik» istiqbolli yoʻnalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Tuyaqush teri xomashyosining gistologik tuzilishi, tuyaqush teri xomashyosining navlari va parranda yoshining olinadigan tuyaqush charmining fizik-kimyoviy xossalariga taʼsirini tadqiq etish bilan xorijda A.Engelbrecht, L.Hoffman, S.W.P. Cloete, S.J.V. Schalkwyk, R.G. Cooper, G.Bostaca, A.V.Kiladze, M.V.Gorbacheva, B.O. Bitslisli, B.Başaran, Ö.Sari, A.Aslan, G.Zengin va boshqalar shugʻullanishgan. Tuyaqush teri xom ashyosiga dastlabki ishlov berish texnologiyasi va tuyaqush charmi ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish boʻyicha tadqiqotlar V.I.Chursin, D.V. Shalbuev, G.G. Lutfullina, G.R. Raxmatullina, T.V.Suxinina, R.N.Tomasheva, I.V.Karelina, A.Afşar, G.Gülümser, N.Ozgunay, F.Akyuz, F.Çiftçi va boshqalar tomonidan oʻtkazilgan.

Respublikamizda tuyaqush charm xomashyo turlariga ishlov berish texnologiyasini takomillashtirish boʻyicha tadqiqotlar T.J. Qodirov, B.B. Axmedov, X.X. Begaliyev, J.F. Ulugmuratov, I.N. Ismatullayev va boshqalar tomonidan tomonidan olib borilgan.

Xozirgi kungacha tuyaqush teri xomashyosining gistologik tuzilishi, tuyaqush teri xomashyosiga dastlabki ishlov berish texnologiyasi, tuyaqush teri xomashyosining navlari, parranda yoshining olinadigan tuyaqush charmining fizik-kimyoviy xossalariga taʼsiri va tuyaqush charmi ishlab chiqarish texnologiyasi boʻyicha ilmiy - tadqiqot ishlari olib borilgan. Tuyaqush terilariga ishlov berishdagi pikellash jarayonini takomillashtirish asosida yorqin rangdagi kiyimbop charmlarini olish imkoniyatini oshirish, tayyor kiyimbop tuyaqush charmlarining sifat koʻrsatkichlarini yaxshilash boʻyicha ilmiy tadqiqotlar yetarlicha oʻtkazilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent toʻqimachilik va yengil sanoat instituti ilmiy-tadqiqot rejasining innovatsion loyihalari va “Kiyimbop charm olishda tuyaqush terilariga ishlov berish texnologik reglamentini ishlab chiqish” (2024 yil, №43/2024) mavzusidagi xoʻjalik shartnoma doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tuyaqush terilaridan yuqori sifatli, kiyimbop va raqobatbardosh ekzotik charm olishni taʼminlash maqsadida, resurs tejamkor va samarali texnologiyani takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tuyaqush terisiga ishlov berishda fermentli pikellash jarayonining texnologik rejimlari va optimal parametrlarini aniqlash;

fermentli pikellash jarayoni tadqiqotlarida tuyaqush teri toʻqimasidagi kimyoviy moddalarning miqdor koʻrsatkichlari va tarkibini oʻrganish;

fermentli pikellash jarayoni tadqiqotlari asosida tuyaqush teri xomashyosiga ishlov berishdagi xromli oshlash jarayonini oʻtkazish va olingan xromli oshlangan

“Wet blue” tuyaqush charmlari xossalarini o‘rganish va tahlil qilish;

fermentli pikellash jarayoni tadqiqotlari asosida tuyaqush teri xomashyosiga ishlov berishdagi bo‘yash-yog‘lash jarayonlari ketma-ketligini ishlab chiqish va olingan kiyimbop “Krast” tuyaqush charmlari xossalarini o‘rganish va tahlil qilish;

takomillashgan kiyimbop “Krast” tuyaqush charmlarini pardoqlash texnologiyasi tadqiqotlarini olib borish va olingan kiyimbop tuyaqush charmlari xossalarini o‘rganish va tahlil qilish;

takomillashgan kiyimbop tuyaqush charmi ishlab chiqarish texnologiyasining iqtisodiy samaradorligini hisoblash.

Tadqiqotning obyekti sifatida tuyaqush teri xomashyosi, sirt aktiv moddalar (SAM), fermentlar, tuzlar, ishqorlar, kislotalar, oshlovchi moddalar, to‘ldiruvchi moddalar, kislotali bo‘yoqlar, yog‘lovchi moddalar va boshqa pardoqlovchi vositalar, go‘lak tuyaqush teri to‘qimasi, xromli oshlangan, “Krast” va tayyor kiyimbop tuyaqush charm namunalari olindi.

Tadqiqotning predmeti tuyaqush teri xomashyosiga ishlov berishdagi fermentli pikellash, oshlash jarayonlarining parametrlari, texnologik rejimlari, “Wet blue” xromli oshlangan, “Krast” va tayyor kiyimbop tuyaqush charmlari xossa ko‘rsatkichlarining o‘zgarish qonuniyatlarini o‘z ichiga oladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada fizik-kimyoviy, skanerli elektron mikroskopiya (SEM), element tahlil, IQ spektroskopiya tahlili va differensial termik taxlil (DTA) metodlari, hamda mavjud meyoriy hujjatlarda belgilangan tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

pikellash jarayonida proteolitik fermentlar majmuasidan iborat Elbro SR ferment preparatini qo‘llash orqali tuyaqush terilariga ishlov berishning takomillashtirilgan va ixcham texnologiyasi ishlab chiqilgan;

tuyaqush terilarini fermentli pikellash jarayonida nokollagen oqsillarni parchalovchi ferment preparatining maqbul konsentratsiyasi tajribaviy-statistik usulda aniqlangan;

taklif etilgan tarkib asosida fermentli pikellash jarayonida teri to‘qimasida nokollagen oqsillar yuvib chiqarilishi natijasida oshlash jarayonida xromli oshlovchi moddalarning teri toqimasi tolali oqsillari bilan kimyoviy bog‘lanishlar hosil bo‘lganligini, spektrofotometr, skanerli mikroskopiya (SEM), element tahlili, IQ-spektroskopiya va differensial termik tahlil (DTA) natijalari asosida aniqlangan;

tuyaqush terisiga ishlov berishning takomillashgan texnologiyasidagi fermentli pikellash jarayonini o‘tkazilishi teri yuza sirtidagi pigment dog‘larni parchalanishi natijasida tuyaqush “Krast” charmi yuza sirti mereyasida pat g‘uddalari (follikulalari) tuzilisini o‘zgarishsiz saqlanib qolishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

yangi tarkibli fermentli pikellash jarayoni asosida kiyimbop tuyaqush “Krast” charmlarini olish texnologik reglamenti ishlab chiqilgan;

ishlab chiqarishda joriy qilingan fermentli pikellash jarayoni tadqiqotlari asosida tuyaqush teri xomashyosiga ishlov berish texnologiyasini takomillashtirish natijasida fizik-kimyoviy xossalari yaxshilangan ekzotik kiyimbop tuyaqush charmlari olingan;

fermentli pikellash jarayon tadqiqotlari asosida takomillashgan kiyimbop tuyaqush charmlarini olish texnologiyasini ishlab chiqarishga tadbiq etilishi, yuqori iqtisodiy samaradorlikka egaligi va ekzotik kiyimbop tuyaqush charmlari assortimentini kengayishiga olib kelishi amaliyotda tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ushbu yo‘nalishning ma’lum natijalari bilan taqqoslash, nazariy va eksperimental tadqiqotlarining o‘zaro mos kelishi, zamonaviy tahlil uslublaridan foydalanilganligi, tajriba-sinovlarning ijobiy natijalari va ularning amaliyotga joriy qilinishi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati fermentli pikellash jarayoni parametrlarini optimallashtirishda, SEM-tadqiqotlari asosida tuyaqush teri to‘qimasining morfologik tuzilishi o‘rganilganligi, element tahlili asosida tuyaqush teri to‘qimasining element tarkibi aniqlanganligi, IQ spektroskopiya tahlili asosida kimyoviy bog‘lar hosil bo‘lganligi va DTA tahlil metodi asosida tuyaqush charmi teri to‘qimasidagi xossa o‘zgarishlari bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati fermentli pikellash oshlash jarayonlari tadqiqotlari asosida kiyimbop xromli oshlangan tuyaqush charm olish texnologiyasining takomillashtirilganligi va yuqori sifat ko‘rsatkichlariga ega kiyimbop tuyaqush “Krast” va tayyor charmlarini olinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tayyor tuyaqush charmining xossalari taqqoslash oshlash texnologik jarayonlarining ta’sirini tadqiq qilish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

tuyaqush teri xomashyosiga ishlov berishdagi tayyorlov, oshlash oldi va oshlash va bo‘yash-yog‘lash jarayonlarini o‘tkazish texnologik reglamenti “TABIIY CHARM” XK da joriy qilingan. (“O‘zcharmsanoat” uyushmasining 15-noyabr 2025 yil, 01-3110-sonli ma’lumotnomasi). Natijada fermentli-pikellash jarayonlari tadqiqotlari asosida takomillashgan xromli oshlangan “Wet blue” charmining gidrotermik destruksiyasi nazorat namunasidan $2,3 \pm 0,2$ 0C yuqori bo‘lishiga, kiyimbop tuyaqush charmlarini 10 MPa deformatsiya bilan cho‘zilganda terining cho‘zilish kuchi 0,6 MPa ga, cho‘zilish ko‘rsatkichi esa 7,4% ga oshishiga erishilgan;

Kiyimbop tuyaqush charmlarini fermentli pikellash jarayonida yangi tarkib qo‘llanilgan texnologiyasi “KARA DERI” MCHJ da joriy etilgan. (“O‘zcharmsanoat” uyushmasining 15-noyabr 2025-yil, 01-3110-sonli ma’lumotnomasi). Natijada fermentli pikellash jarayonida ELBRO SR ferment preparatining optimal konsentratsiyasi 0,3-0,4% ni tashkil qilganda pikel eritmasiga yuvilib chiqadigan oqsillar miqdori nazorat variantiga nisbatan 1,8-2,0 baravarga oshganligi, xromli oshlangan va tayyor kiyimbop tuyaqush charmining fizik-mexanik xossalari yaxshilanishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 21 ta respublika ilmiy - amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 28 ta ilmiy ishlar nashr qilingan, 7 ta ilmiy maqola, shu jumladan, texnika fanlari falsafa doktori dissertatsiyasining asosiy natijalarini nashr qilish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya qilingan Respublika jurnallarida 5 ta, xalqaro jurnallarda 2 ta ilmiy maqola nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalarni qamrab olgan holda dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, uning obyekti, hamda predmetlari tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Charm ishlab chiqarishda pikellash jarayonini takomillashtirishdagi istiqbolli yo'nalishlari**» deb nomlangan birinchi bobida charm ishlab chiqarishda pikellash jarayonida qo'llaniladigan fermentlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari, hamda charm va mo'yna teri to'qimasining xossa o'zgarishlari, pikellash jarayonining zamonaviy va an'anaviy usullari, hamda ferment preparatlarini qo'llash natijasida jarayonlarni jadallashuvi, tuyaqush teri xomashyosiga ishlov berish texnologiyasining muammolari va ularning amaliy yo'nalishlari bo'yicha ilmiy adabiyotlar, patentlar va dissertatsiya ishlarining tahlili keltirilgan.

Adabiyotlar taxliliga ko'ra tuyaqush teri xomashyosining gistologik tuzilishi, boshlang'ich ishlov berish, tuyaqush teri xomashyosi va charmi xossalarning tuyaqush parrandasi yoshiga bog'liqligi, tuyaqush teri xomashyosiga ishlov berish texnologiyasi, ivitish-kullash, yog'sizlantirish jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha ko'pgina ma'lumotlar keltirilgan. Biroq kiyimbop tuyaqush charmi olishda muhim bo'lgan pikellash jarayonini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar yetarlicha o'tkazilmagan. Tuyaqush terilariga ishlov berish texnologiyasidagi pikellash jarayonida ferment preparatidan foydalanish orqali jarayon samaradorligini oshirish, tuyaqush charmlarining organoleptik va fizik-kimyoviy xossalarni yaxshilash, dolzarb vazifalardan biri ekanligi, pikellash jarayonini takomillashtirish bo'yicha ilmiy – tadqiqot ishlarini bajarishga zarurat xosil bo'lib, o'tkazilgan adabiyotlar tahliliga ko'ra tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilab olindi.


Dissertatsiyaning «**Tadqiqot obyektlari va metodlari**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot obyektlari tavsifi, tuyaqush teri to'qimasi, yarim tayyor mahsuloti, tuyaqush "Krast" va tayyor charmlarining fizik-kimyoviy va mexanik xossalarni aniqlashdagi, hamda ularning strukturasi tadqiq etishdagi skanerli elektron mikroskopiya (SEM), element tahlil, infraqizil spektroskopiya (IK) va differensial termik analiz (DTA) usullarning tasniflari keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Fermentli pikellash jarayoni tadqiqotlari asosida kiyimbop tuyaqush charmi ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish**» deb nomlangan uchinchi bobida fermentli pikellash texnologik jarayoni tadqiqotlari, fermentli pikellash texnologik jarayoni tadqiqotlari asosida olingan xromli oshlangan tuyaqush charmi to'qimasi mikrostruktura tuzilishining SEM va element tahlil tadqiqot natijalari, kiyimbop "Krast" tuyaqush charmining fizik-kimyoviy va mexanik xossalari aniqlangan. Kiyimbop tuyaqush charmi namunalarining IQ-spektroskopiya va DTA taxlil natijalari keltirilgan. Tadqiqotlarda olingan kiyimbop "Krast" tuyaqush charmlari

anilinli pardoqlash usulida pardoz qilinib, o'tkazilgan tadqiqotlar asosida takomillashgan kiyimbop tuyaqush charmini ishlab chiqarish texnologiyasi taklif etilgan va iqtisodiy samaradorligi hisoblangan.

Tuyaqush teri xomashyosi o'zining topografik qismlar, mikrostrukturasi, kimyoviy tarkibi va teri yuza qatlamining ko'rinishiga ko'ra boshqa teri xomashyosi turlaridan farq qiladi. O'tkazilgan tadqiqotlarda 9-10 oylik tuyaqushlarning terilari olinib, ularning o'rtacha massasi 2,5-3,0 kg va yuzasi 90-110 dm² ni tashkil qildi.

An'anaviy charm ishlab chiqarish texnologiyasida oshlash oldi jarayonlar bo'lgan yumshatish jarayoni pikellash jarayonidan avval o'tkaziladi (1-rasm).



1-rasm. Tuyaqush teri xomashyosiga an'anaviy ishlov berish sxemasi


Taklif qilinayotgan texnologiyadagi fermentli pikellash jarayonida Elbro SR FP ning optimal konsentratsiyasini aniqlandi. Tuyaqush teri xomashyosiga ishlov berishdagi pikellash jarayonining nazorat va tajriba variantlari parametr va rejimlari quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Tuyaqush teri xomashyosiga ishlov berishdagi pikellash jarayonining nazorat va tajriba sinov ishlari

Jarayon nomi	Kimyoviy moddalar nomi	Temperatura, °C	Kimyoviy moddalar sarfi, %	Jarayon vaqti, min.	Izoh
1	2	3	4	5	6
Nazorat sinov					
Yumshatish	Suv LETAN BT FP	35	100 1	60	
Chayish	Suv	20	200	30	
Pikellash	Suv	20	200	60	Ve ⁰ = 7-8 pH=2,8-3,0
	Natriy xlorid (NaCl)		10	120	
	Chumoli kislota (NCOON, 60%) Sulfat kislota (H ₂ SO ₄ , 60%)		0,5 1.0	360	
Tajriba sinov					
Fermentli Pikellash	Suv	30	100	60	Ve ⁰ = 7-8 pH =2,8-3,0
	Natriy xlorid (NaCl)		7,0-8,0	180	
	Chumoli kislota (NCOON, 60%) Elbro SR FP (1-5 namunalari)		1,0-1,2 X= 0,1; 0,2; 0,3; 0,4; 0,5	60	

O‘tkazilgan tadqiqotlarning nazorat va tajriba namunalari tuyaqush teri to‘qimasidan eritmaga ajralib chiqadigan eruvchan nokollagen oqsillarning miqdor ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi tahlil qilindi. Pikellash eritmasiga ajralib chiqadigan oqsillar o‘zgarish miqdorlari quyidagi diagrammada keltirilgan (2-rasm).



2-rasm. Elbro SR FP konsentratsiyasiga bog‘liq holda pikellash eritmasiga ajralib chiqadigan nokollagen oqsillar miqdorining o‘zgarishi

O‘tkazilgan tadqiqotlarga asosan pikellash eritmasiga ajralib chiqadigan oqsillar miqdori 1-5 namunalarda teri to‘qimasi massasiga nisbatan mos ravishda 0,26, 0,35, 0,44, 0,50 va 0,53 g/kg ni va nazorat namunasida (6-namuna) 0,24 g/kg ni tashkil qildi. Diagrammadagi 5-tajriba va 6-nazorat namunalari solishtirilganda oqsillarning pikellash eritmasiga ajralib chiqishi 2,2 barobar oshganligi kuzatildi. Olib borilgan fermentli pikellash jarayoni tadqiqotlarida Elbro SR FP ning proteolitik ta‘sirini o‘rganish maqsadida tuyaqush teri to‘qimasi namunalari gidrotermik bardoshlik ko‘rsatkichlari aniqlandi. Tuyaqush teri to‘qimasi namunalari gidrotermik bardoshlik ko‘rsatkichlari quyidagi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Tuyaqush teri to‘qimasi namunalari gidrotermik bardoshlik ko‘rsatkichlari

Pikellash namunalari	Elbro SR FP sarfi, %	Gidrotermik bardoshlik ko‘rsatkichi, °C
1	0,1	50,0 ± 0,4
2	0,2	49,0 ± 0,3
3	0,3	48,0 ± 0,6
4	0,4	47,0 ± 0,6
5	0,5	46,0 ± 0,3
6	-	50,0 ± 0,3

Elbro SR FP ning pikellash jarayonida samarali ta'siri tufayli gidrotermik bardoshlik ko'rsatkichi 1-5 tajriba namunalariga mos ravishda $50,0 \pm 0,4$ °C dan $46,0 \pm 0,3$ °C gacha pasayishi va 6-nazorat namunasida $50,0 \pm 0,3$ °C bo'lishi aniqlandi. Pikel eritmasida FP konsentratsiyasining ko'tarilishi bilan tuyaqush teri to'qimasi namunalarida gidrotermik bardoshlik ko'rsatkichining $4,0 \pm 0,1$ °C ga pasayishi kuzatildi. Dastlabki o'tkazilgan tadqiqotlarga asoslanib, Elbro SR FP ning optimal konsentratsiyasi 0,3-0,4% ni tashkil qildi.

Pikellash jarayonidan keyingi xromli oshlash jarayoni ishlatilgan pikel eritmasida amalga oshirildi. Oshlash jarayoning parametrlari va kimyoviy moddalar sarfi quyidagi 3- jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Tuyaqush teri xomashyosiga ishlov berishdagi oshlash oldi va oshlash jarayonlarining texnologik parametrlari

Jarayon nomi	Kimyoviy moddalar nomi	Temperatura, °C	Kimyoviy moddalar sarfi, %	Jarayon vaqti, min.	Izzox
1	2	3	4	5	6
Nazorat sinov					
Pikellash - oshlash	Suv	20	200	60	pH=2,8-3,0
	Natriy xlorid (NaCl)		10	120	
	Chumoli kislota (HCOOH, 60%)		0,5	360	
	Sulfat kislota (H ₂ SO ₄ , 60%)		1,0	240-300	
	Xrom oshlovchi moddasi (CrOHSO ₄ , asosliligi 33 %)		8,0		
	Natriy formiat (HCOONa)		1,0	60	pH = 3,8-4,0
	Natriy bikarbonat (NaHCO ₃)		0,5	60	
Tajriba sinov					
Fermentli Pikellash- oshlash	Suv	30	100	60	Ve ⁰ = 7-8
	Natriy xlorid (NaCl)		7,0-8,0	180	pH = 2,8-3,0
	Chumoli kislota (HCOOH, 60%)		1,0-1,2		
	Elbro SR FP		0,3	60	
	Xrom oshlovchi moddasi (CrOHSO ₄ , asosliligi 33 %)		6,0	240-300	
	Natriy formiat (HCOONa)		1,0	120	
	Natriy bikarbonat (NaHCO ₃)		0,5	30	pH = 3,8-4,0


Oshlash jarayonidan keyin xromli oshlangan “Wet blue” tuyaqush charm namunalari 24 soat taxlab saqlashga qoldilirdi va ularning fizik-kimyoviy xossalarini o‘rganish maqsadida gidrotermik bardoshlik va pH ko‘rsatkichlari aniqlandi (4-jadval).

4-jadval


Xromli oshlangan “Wet blue” tuyaqush charm namunalarining fizik-kimyoviy xossalari

Pikellash tajribalari	Gidrotermik bardoshlik ko‘rsatkichi, °C	pH ko‘rsatkichi
Tajriba namunasi	$96,5 \pm 2,5$	$4,0 \pm 0,2$
Nazorat namunasi	$94,2 \pm 2,3$	$4,1 \pm 0,2$

Yuqorida keltirilgan tahlil ma’lumotlariga ko‘ra tajriba va nazorat sinov ishlarida olingan xromli oshlangan “Wet blue” tuyaqush charmlarining gidrotermik bardoshlik ko‘rsatkichi mos ravishda $96,5 \pm 2,5$ va $94,2 \pm 2,3$ °C ni tashkil qildi. Bunda tajriba namunalarining gidrotermik bardoshlik ko‘rsatkichi nazorat namunasidan $2,3 \pm 0,2$ °C yuqoriligi ekanligi va namunalarning pH ko‘rsatkichlari bir-biriga o‘xshash ekanligi aniqlandi. Xromli oshlangan kiyimbop tuyaqush charm namunalarining yuza sirti tuzilishi va yuza sirtida hosil bo‘lgan morfologik o‘zgarishlarni tahlil qilish maqsadida skanerli elektron mikroskopiya (SEM) uslubi qo‘llanildi va mikrofotosur’atlar olindi (3-rasm).




a) nazorat namunasi




b) tajriba namunasi

3-rasm. Xromli oshlangan ” Wet blue” tuyaqush charm namunalarining yuza sirti pat g‘uddalarining mikrofotosuratlari

O‘tkazilgan SEM tadqiqotlariga ko‘ra nazorat namunalarining yuza sirtidagi pat g‘uddasida eroziya va yemirilish nuqsonlarining borligi, tajriba namunasida olingan tuyaqush charmi namunalarida esa bunday nuqsonlar kuzatilmaganligi aniqlandi (3-rasm). Xromli oshlangan tuyaqush charmlarining tajriba namunalaridagi xrom elementi miqdori nazorat namunalaridagi xrom elementi miqdori 1,6 % ko‘pligi aniqlandi (4-rasm).



a) nazorat namunasi



b) tajriba namunasi

4-rasm. Tuyaqush “WET BLUE” charm namunalarining element tahlillari

Xromli oshlangan “Wet blue” tuyaqush charmi namunalarining bo‘yash-yog‘lash jarayonlari kiyimbop echki charmi olish texnologiyasida keltirilgan bo‘yash-yog‘lash jarayonlari texnologiyasiga o‘xshash texnologiya asosida amalga oshirildi. Bo‘yash-yog‘lash jarayonlarini amalga oshirishdan oldin, xromli oshlangan “Wet blue” tuyaqush charmi namunalari organoleptik usul yordamida tekshirildi va tuyaqush charm namunalarining yuzasi fotosuratlariga olindi (5-rasm).




a) nazorat namunasi



b) tajriba namunasi


5 – rasm. Xromli oshlangan “Wet blue” tuyaqush charmi namunalarining yuz sirti fotosuratlari

Organoleptik tahlilga asoslanib, nazorat namunasidagi ba'zi xromli oshlangan “Wet blue” tuyaqush charmi namunalarining yuz sirtida epidermis qoldiqlari va dog'lar aniqladi, tajriba namunasi namunalarida bunday nuqsonlar aniqlanmadi (5-rasm (a va b)). Ushbu nuqsonlar tuyaqush charm sifatini pasaytiradi va pardozlash jarayonida muammolar xosil qiladi. Shu sababli, tajriba namunasida olingan xromli oshlangan “Wet blue” tuyaqush charmi namunalari och jigarrang rangga, nazorat varianti namunalari esa qora rangga bo‘yaladi. Bo‘yash-yog‘lash jarayonlaridan so‘ng "Crust" tuyaqush charm namunalari olindi va bo‘yash-yog‘lash jarayonlarining ketma-ketlik sxemasi ishlab chiqildi (6-rasm). Tadqiqotlarda olingan bo‘yalgan kiyimbop tuyaqush charmi namunalari erkin holatda quritish, yumalatish va ramkali quritish jarayonlaridan o‘tkazilib, kiyimbop tuyaqush “Krast” charmi namunalari olindi.



6 – rasm. Tuyaqush terilariga ishlov berishdagi bo'yash - yog'lash jarayonlarining ketma-ketligi

Tuyaqush “Krast” charmi namunalaridagi teri to‘qimasi strukturasi o‘zgarganligi, kimyoviy moddalarning teri to‘qimasi tarkibidagi tolali oqsillar bilan o‘zaro birikishi, uchbog‘ va qo‘shbog‘larning hosil bo‘lishini va murakkab kimyoviy bog‘lanishlarni taxlil qilish maqsadida IQ- spektroskopiya metodi qo‘llanildi. Tajriba va nazorat namunalarining IQ spektrlarini solishtirish maqsadida va ustma-ust xolatda tahlil qilindi (7 – rasm).



7 – rasm. Tuyaqush “Krast” charmi namunalarining IQ-spektrlari. Nazorat varianti (qizil rangda) va tajriba varianti (ko'k rangda)

Tajriba va nazorat namunalarida olingan kiyimbop tuyaqush “Krast” charmi namunalarining IQ-spektrogrammalari asosida olingan ma’lumotlar quyidagi 5-jadvalda keltirildi. IQ-spektrlar tahlil qilinganda, taklif etilgan takomillashgan tuyaqush teri xomashyosiga ishlov berish texnologiyasini qo‘llash natijasida tuyaqush teri to‘qimasi strukturasi o‘zgarganligi va kimyoviy moddalarning teri to‘qimasi


tarkibidagi tolali oqsillar bilan o‘zaro birikishi, uchbog‘ va qo‘shbog‘larning hosil bo‘lishi, murakkab kimyoviy bog‘lanishlar hisobiga, kiyimbop charmning mustahkamlik xossalarini namoyon bo‘lishini izohladi.

5-jadval


Tajriba va nazorat namunalarida olingan tuyaqush “Krast” charmi namunasining IQ-spektrogrammasi asosida olingan ma’lumotlar

To‘lqin soni (sm ⁻¹)	Bog‘lanish turi	Tegishli guruh funksiyasi	Izoh
3307 – 3308	N-H / O-H bog‘lar	Amid A, suv, aminoguruhlar	Kollagen, oqsillar, gidroksil guruhlar
2922 – 2918	C-H bog‘lar (asimmetrik)	CH ₂ / CH ₂ (uglevodorodlar)	Yog‘, lipid, vositalar izlari
2852 – 2850	C-H bog‘lar (simmetrik)	CH ₂ (uzun zanjirli alkanlar)	Esterlar yoki teri moylari
1742 – 1729	C=O bog‘lar	Esterlar, karboksil kislotasi, yog‘lovchi modda	Charmdagi yog‘ moddalari belgisi
1644 – 1635	Amid I (C=O+N-H) Amid II (N-H+C-N)	Peptid bog‘ (kollagen)	Oqsillar struktura ko‘rsatkichi Oqsillar ichidagi aminoguruhlar
1455 – 1451	CH ₂ deformatsiyasi	Metilen guruhlar	Yog‘-kisloti zanjirlari
1377 – 1376	CH ₂ deformatsiyasi	Metil guruhlari	Oqsillar, yog‘lar
1234 – 1158	C-O-C yoki C-N	Ester, efir, kollagen bilan bog‘liq zanjirlar	Charm strukturasi
1081 – 1026	C-O yoki C-N bog‘lar	Spirtlar, aminlar, oqsillar	Kollagen va polisaxarid
676 – 506	Metall–O, deformatsiyalar	Anorganik modda, tuzlar, ohak qoldiqlari	Ishlov berilgan charmda bo‘lishi mumkin

Tajriba va nazorat namunalarida olingan kiyimbop tuyaqush “Krast” charm namunalarining strukturasi va tarkibini tahlil qilish maqsadida differensial termik taxlil (DTA) uslubi qo‘llanildi va kiyimbop tuyaqush charm namunalarining derivatogrammlar olindi (8 – rasm).



Tajriba namunasi



Nazorat namunasi

8-rasm. Kiyimbop tuyaqush “Krast” charmi namunalarining derivatogrammalari

Bunda qizil chiziq - issiqlik reaksiyalari (DTA), yashil chiziq - massa o‘zgarishi (TGA), ko‘k chiziq - issiqlik oqimi (DSC).

Tuyaqush “Krast” charm namunalarining derivatogrammalarida temperatura ko‘tarilishiga mos ravishda turli darajadagi energiyaning yutilishlari va energiyaning ajralib chiqishlari, massa yo‘qotishlar taxlil qilindi (6-jadval).

6-jadval


Kiyimbop tuyaqush “Krast” charmi namunalarining differensial-termik analiz ko‘rsatkichlari

Bosqich	Cho‘qqi harorati (°C)	Massa yo‘qotilishi (mg)	Massa yo‘qotilishi (%)	Jarayon	Izoh
Nazorat sinov					
1	88,80	1,536	13,496	Endotermik	Suvning bug‘lanishi
2	356,18	6,581	57,831	Ekzotermik	Kollagen va organik moddalarning parchalanishi
3	721,16	0,462	4,062	-	Anorganik qoldiqlarning oksidlanishi
Qoldiq	-	2,798	24,592	-	Mineral moddalari
Tajriba sinov					
1	88,20	1,326	11,477	Endotermik	Suvning bug‘lanishi
2	362,32	6,717	58,144	Ekzotermik	Kollagen va organik moddalarning parchalanishi
3	715,96	0,616	5,336	-	Anorganik qoldiqlarning oksidlanishi
Qoldiq	-	2,890	25,020	-	Mineral moddalari

Tuyaqush “Krast” charm namunalarining derivatogrammalari o‘xshash xususiyatga ega bo‘lib, ular turli darajadagi bog‘lanish energiyasiga ega bo‘lishi va massa yo‘qotishlar harorat oraliklarining kattaligi bilan farq qildi.

Tayyor kiyimbop tuyaqush charmlarini olish maqsadida pardoqlash jarayon va operatsiyalari amalga oshirildi. Taklif etilgan takomillashtirilgan texnologiya olingan "Krast" tuyaqush charmi namunalarini pardoqlashda anilinli pardoqlash usulidan foydalanish imkonini berdi. Ushbu pardoqlash usuli tuyaqush charmining tabiiy ko‘rinishini saqlab qolisiga va kiyimbop tuyaqush charmining estetik va fizik-

mexanik xossalari yaxshiladi. “Krast” tuyaqush charmi namunalarini pardoqlashda ODAK, Letan by Odak group (Turkiya), Shebekinskaya Industrialnaya Ximiya (Rossiya) va boshqa xorijie kompaniyalarning pardoqlash kimyoviy moddalari ishlatildi. O‘tkazilgan tadqiqotlar asosida pardoqlash jarayon va operatsiyalarini o‘tkazishning ketma – ketlik sxemasi ishlab chiqildi (9-rasm).



9-rasm. Kiyimbop tuyaqush “Krast” charmlarini pardoqlashdagi jarayon va operatsiyalar ketma-ketlik sxemasi: a) nazorat varianti; b) tajriba variant

Dissertatsiya ishining maqsadi va vazifalariga muvofiq o‘tkazilgan tadqiqotlarda olingan kiyimbop tuyaqush charmi namunalarining fizik-mexanik va kimyoviy xossalari taxlil qilindi va Davlat standarti GOST 1875-2022 da keltirilgan kiyimbop echki charmi xossa ko‘rsatkichlari bilan solishtirildi. Kiyimbop tuyaqush charmlari xossalari taxlil qilishda paralel ravishda, uchtadan namuna ko‘rsatkichlari taxlil qilindi va ularning o‘rtacha ko‘rsatkichlari xisoblandi (7-jadval).

7-jadval


Kiyimbop tuyaqush charm namunalarining fizik-mexanik va kimyoviy xossalari

№	Ko‘rsatkichlar nomi	Tuyaqush charm namunalari		Kiyimbop echki charmi GOST 1875-2022
		Nazorat namunasi	Tajriba namunasi	
1	2	3	4	5
1	Charmning yuzasi, dm ²	90-100	90-100	60-80
2	Charmning qalinligi,mm	0,8-0,9	0,8-0,9	0,9 -1,0
3	Chuzilishda mustahkamlik chegarasi, MPa, kam emas	1,9	2,2	1,0 kam emas
5	10 MPa kuch bilan cho‘zilganda uzayishi miqdori, %	30,0	35,6	25-45
6	Xrom oksidining miqdori, %, kam emas	3,8	4,0	3,6 kam emas
7	Organik erituvchida ekstraksiya qilinadigan moddalar massasi ulushi,%	17,0	15,0	10-18
8	Namlikning massa ulushi, %	12,3	12,5	10-16
9	Bug‘ o‘tkazuvchanlik,%	37,5	40,2	-

1	2	3	4	5
10	Qoplamaning ko'p marotaba egilib-bukilishga bardoshligi 1000 sikldan keyin, ball	3	4	-

Tuyaqush charmi namunalarining fizik-mexanik, kimyoviy va gigiyenik xossalari aniqlandi. Tajriba sinov ishi namunalari xossa ko'rsatkichlari nazorat sinov ishi namunalari ko'rsatkichlaridan ustunlikka ega ekanligi qayd etildi. Bunda 10 MPa deformatsiya bilan cho'zilganda terining cho'zilish kuchi 0,6 MPa ga, cho'zilish ko'rsatkichi esa 7,4% ga oshganligi aniqlandi. Taklif qilingan tuyaqush teri xomashyosiga ishlov berish usuli asosida olingan tuyaqush "Krast" charmlarining fizik-kimyoviy xossalari tahlil qilish va taqqoslash asosida ularni kiyimbop charm sifatida ishlatilishi mumkinligi asoslandi.

O'tkazilgan tadqiqotlar asosida tuyaqush teri xom ashyosiga ishlov berishdagi tayyorlov, oshlash oldi va oshlash jarayonlari ketma-ketligi ishlab chiqildi (10-rasm).



10-rasm. Kiyimbop tuyaqush charmini olishdagi tayyorlov, oshlash oldi va oshlash jarayonlari ketma-ketligi

Tuyaqush teri xomashyosiga ishlov berish texnologiyasida fermentli pikellash texnologik jarayoni qo'llanildi va korxonada qo'llab kelinayotgan an'anaviy texnologiya bilan solishtirildi. Bunda oshlashdan oldingi tayyorlov, bo'yash-yog'lash va pardoqlash jarayonlaridagi kimyoviy moddalar sarfi hisoblanib, nazorat va tajriba sinov ishlaridagi sarf xarajatlar solishtirildi.

Kiyimbop tuyaqush terilarining texnologik jarayonlarida kutiladigan iqtisodiy samaradorlik hisoblab chiqildi. Bunda 100 komplekt tuyaqush teri xomashyosiyani takomillashgan texnologiya asosida ishlov berilganda 758950 so'm iqtisodiy samaradorlikka erishilishi. Agar tuyaqush charmlari ishlab chiqaruvchi korxonada oylik quvvati 2500 ta komplekt tuyaqush teri xomashyosiga ishlov berilsa, kutiladigan bir yillik iqtisodiy samaradorlik 227 685 000 so'mni tashkil qiladi.

XULOSALAR

"Kiyimbop charm olishda tuyaqush terilariga ishlov berish texnologiyasini takomillashtirish" mavzusida olib borilgan tadqiqot ishi bo'yicha quyidagi xulosalar keltirildi:

1. Fermentli pikellash jarayoni tadqiqoti asosida, ishlab chiqarish sikli qisqartirilgan kiyimbop tuyaqush charmini ishlab chiqarishning takomillashgan texnologiyasi ishlab chiqildi.

2. Fermentli pikellash tadqiqotida Elbro SR FP ning optimal konsentratsiyasi aniqlandi. Elbro SR FP ning 0,3–0,4 % konsentratsiyasida pikel eritmasiga ajralib chiqadigan oqsillar miqdori 1,8–2,0 barobar ortishi aniqlandi.

3. Fermentli pikellash jarayonini o'rganish natijasida teri to'qimasining gidrotermik bardoshlik ko'rsatkichi $48,0 \pm 0,6$ °C gacha pasayganligi aniqlandi va FP ning tuyaqush charmi to'qimasining oqsil tuzilishiga proteolitik ta'siri tasdiqladi.

4. Fermentli pikellash jarayoni tadqiqoti asosida xromli oshlash jarayoni amalga oshirildi va "WET BLUE" tuyaqush charmi namunalari olindi. Tajriba namunalarining gidrotermik bardoshlik ko'rsatkichi nazorat namunalariga nisbatan $2,3 \pm 0,2$ °C ga ko'tarildi. Ushbu natijalar elementli tahlil asosida tasdiqlanib, tajriba namunalaridagi xrom elementi miqdori nazorat namunalariga qaraganda 1,6 % yuqori bo'ldi.

5. SEM tahlil metodi asosida "WET BLUE" xromli oshlangan tuyaqush charmi pat follikulalari yuza sirtining mikrofotolari olindi. Nazorat namunalarida yumshatish jarayonida LETAN BT FP ta'sirida pat follikularining eroziyasi va shikastlanishi kuzatildi. Taklif qilingan ishlov berish usulida ushbu nuqsonlar kuzatilmadi.

6. Organoleptik tahliliga asoslanib, "WET BLUE" xromli oshlangan tuyaqush charmi nazorat sinov ishi namunalarining yuza sirtida epidermis qoldiqlari va dog'lar borligi va tajriba sinov ishi namunalarining yuza sirti tozaligi aniqlandi. Taklif qilingan ishlov berish usuli "WET BLUE" xromli oshlangan tuyaqush charmlarini och va yorqin ranglarga bo'yash imkonini berib, "Krast" tuyaqush charmlari olindi.

7. IQ spektroskopiyasi tahlil uslubi asosida "Krast" tuyaqush charmlari namunalarining tuzilishidagi o'zgarishlar va turli xil kimyoviy bog'lanishlarning shakllanganligi aniqlanib, kimyoviy moddalarning charm to'qimasidagi fibrillyar oqsillariga ta'siri natijasida fizik-mexanik xossalarning yaxshilanishini tasdiqladi.

8. DTA tahlil uslubi asosida "Krast" tuyaqush charmi namunalarining derivatogrammalari olindi. Olingan derivatogrammal o'xshash xarakterga ega bo'lib, bunda harorat diapazonlarining kattaligi, bog'lanish energiyalari va massa yo'qotishlarning turli darajadagi farqlari aniqlandi.

9. Taklif qilingan texnologiya "Krast" tuyaqush charmlarini anilinli pardoqlash usuli yordamida pardoqlash imkonini berdi, buning natijasida kiyimbop tuyaqush charmlarining tabiiy ko'rinishi va estetik xossalari saqlanib qolishi ta'minlandi. Tajriba namunalari ba'zi fizik-mexanik xossalari bo'yicha nazorat namunalaridan ustun ekanligi, cho'zilishdagi mustahkamlik chegarasi 0,6 MPa ga, hamda 10 MPa kuchlanish bilan cho'zilganda uzayish miqdori 7,4 % ga oshganligi bilan tasdiqlandi.

10. Kiyimbop tuyaqush charmini ishlab chiqarishning takomillashtirilgan texnologiyasini ishlab chiqarishga tatbiq qilishdagi iqtisodiy samaradorlik hisoblab chiqildi. XK "TABIIY CHARM" da fermentli pikellash texnologik jarayonlarini takomillashtirish natijasida erishiladigan bir yillik iqtisodiy samaradorlik 227 685 300 so'mni tashkil qildi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПРИ НАУЧНОМ СОВЕТЕ
DSC.03/2025.27.12.Т.21.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ИНСТИТУТЕ ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ИНСТИТУТ ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

КЕНЖАЕВ АВАЗ САЙИТМУРАТ ЎҒЛИ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ ВЫДЕЛКИ ШКУР
СТРАУСА ДЛЯ ОДЕЖНОГО АССОРТИМЕНТА**

05.06.03 – «Технология кожи, меха, обуви и кожевенно-галантерейных изделий»

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2026

Тема диссертации доктора философии по техническим наукам (Doctor of Philosophy) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистана B2025.2.PhD/T5712.

Диссертация выполнена в Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета Ташкентского института текстильной и легкой промышленности (www.ttyesi.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Бегалиев Хашим Хикматджанович
кандидат технических наук, доцент

Официальные оппоненты:

Худайбердиева Дилфуза Бахрамовна
доктор технических наук, профессор

Шойимов Шохрух Шухратович
доктор философии технических наук, доцент

Ведущая организация:

Бухарский государственный технический университет

Защита диссертации состоится 31 марта 2026 года в 10⁰⁰ часов на заседании разового Научного совета DSC.03/2025.27.12.T.21.01 при Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности по адресу: 100100, г. Ташкент, ул. Шохжахон, 5. Административное здание Ташкентского института текстильной и легкой промышленности, 2 этаж, 222-аудитория, тел.: (+99871) 253-06-06, факс: (+99871) 253-36-17; e-mail: titlp_info@edu.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского института текстильной и легкой промышленности (диссертация зарегистрирована за №283). Адрес: 100100, город Ташкент, Яккасарайский район, ул. Шохжахон-5. Тел: (99871) 253-06-06, 253-08-08, факс: (99871) 253-36-17; e-mail: titlp_info@edu.uz.

Автореферат диссертации разослан «16» марта 2026 года.
(Реестр протокола рассылки № 283 от «16» марта 2026 года).



Х.Х. Камилова
председатель разового Учёного совета по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

А.З. Мамаатов
старший член разового Учёного совета по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

Ш.Б. Мирзаев
член разового научного семинара при разовом совете по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Мировая кожевенная и меховая промышленность развивается быстрыми темпами, в том числе, производство кожи страуса осуществляется в Южно-Африканской Республике, Исламской Республике Иран, Пакистане и других странах, а во всем мире производится более 1 000 000 экзотических кож страуса¹. При производстве экзотических кож страуса важным является совершенствование и внедрение технологии переработки кожевенного сырья страуса на основе исследований технологического процесса пикелевания, являющегося одним из важнейших подготовительных процессов перед процессом дубления. Одновременно при совершенствовании технологии выработки кожи страуса одежной кожи необходимо учитывать специфические особенности шкуры страуса.

Сегодня, наряду со многими другими отраслями народного хозяйства, кожевенно-обувная промышленность нашей Республики стремительно развивается. Основное внимание в этой сфере уделяется выпуску конкурентоспособной и импортозамещающей продукции на рынке готовой продукции и расширению ассортимента готовой кожи. В нашей Республике реализуется широкий комплекс мер по расширению ассортимента выпускаемых видов кожи, снижению энергозатрат, использованию эффективных технологий и дальнейшему повышению экспортного потенциала нашей страны, и достигаются определенные результаты. В Стратегии развития Нового Узбекистана, в частности, обозначены важные задачи под заголовком «Увеличение к 2026 году объемов промышленного производства за счет восполнения существующих пробелов в производстве обуви и готовых изделий из кожевенного сырья в регионах, а также импортозамещающей продукции. В этой связи увеличить производство готовых изделий из кожи в 2,3 раза». В реализации поставленных задач в кожевенной отрасли большое значение имеет эффективное использование локализованного сырья страусиной кожи и производство экзотической кожи страуса с высокими качественными показателями, отвечающими конкурентоспособным экспортным требованиям.

Постановление Президента Республики Узбекистан от 11 октября 2023 года №ПП-331 «О мерах по дальнейшему ускорению реформ в кожевенно-обувной и меховой промышленности и повышению экспортного потенциала отрасли», Указ №ПФ-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы» и Постановления №ПП-4982 от 8 февраля 2021 года «О дополнительных мерах по дальнейшему развитию кожевенно-обувной и меховой промышленности», Постановления №ПП-3693 от 3 мая 2018 года «О мерах по дальнейшему стимулированию развития кожевенно-обувной и меховой промышленности и повышению их экспортного потенциала», а также данная диссертационная работа в определенной мере служит реализации задач, поставленных в соответствующих нормативно-правовых документах.

¹ <http://www.Worldostrich.org/download/woaleathergrade.pd>. (WORLD OSTRICH ASSOCIATION)

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данная исследовательская работа выполнена в соответствии с развитием науки и технологий Республики Узбекистан II. «Энергетика, энерго и ресурсосбережение».

Степень изученности проблемы. За рубежом были проведены исследования по определению гистологического строения кожевенного сырья страуса, влияние породы и возраста птицы страуса на физико-химические свойства страусиной кожи исследователями А.Engelbrecht, L.Hoffman, S.W.P. Cloete, S.J.V. Schalkwyk, R.G. Cooper, G.Bostaca, B.O. Bitslisli, B.Баşaran, Ö.Sari, A.Aslan, G.Zengin Киладзе, М.В. Горбачева, и др. Исследованиями технологии первичной обработки шкуры страуса и разработки технологии получения кожи страуса занимались также исследователи В.И.Чурсин, Д.В. Шалбуев, Г.Г. Лутфуллина, Г.Р. Рахматуллина, Т.В.Сухинина, Р.Н.Томашева, И.В. Карелина, А. Afşar, G.Gülümser, Н. Ozgunay, F. Akyuz, F. Çiftçi.

В нашей Республике исследования по технологии переработки кожевенного сырья страуса проводились Т.Ж. Кодировым, Б.Б. Ахмедовым, Х.Х. Бегалиевым, Ж.Ф. Улугмуратовым, И.Н. Исматуллаевым и др.

В упомянутых выше исследованиях представлено много информации о гистологическом строении кожного сырья страуса, о его первичной обработке, о характеристиках кожевенного сырья страуса и о свойствах готовой кожи в зависимости от возраста птицы страуса и о технологиях производства кожи страуса. Однако преддубильный процесс пикелевания, имеющий важное значение при обработке шкуры страуса, изучен недостаточно.

Связь темы диссертации с научно-исследовательскими работами высшего образовательного учреждения, где выполнена диссертация.

Данная диссертационная работа является частью научно-исследовательского плана Ташкентского института текстильной и легкой промышленности, хозяйственных договоров по темам № 43/2024.

Целью исследований является усовершенствование технологии переработки шкуры страуса с целью обеспечения конкурентноспособности, ресурсосберегаемости и экономической рентабельности технологии высококачественной одежной кожи страуса.

Задачи исследования:

определение технологических режимов и оптимальных параметров процесса ферментативного пикелевания при переработке шкуры страуса;

изучение количественных показателей и химического состава кожной ткани страуса в исследованиях процесса ферментативного пикелевания;

проведение процесса хромового дубления при переработке шкуры страуса на основе исследований процесса ферментативного пикелевания, а также изучение и анализ свойств полученной кожи страуса хромового дубления “Wet blue”;

разработка последовательности красильно-жировальных процессов при переработке шкуры страуса, а также изучение и анализ свойств полученной кожи страуса “Краст”;

проведение исследований по технологии отделки одежды кожей страуса «Краст» и по определению свойств полученной одежды кожей страуса;
расчет экономической эффективности усовершенствованной технологии одежды кожей страуса.

Объектами исследования были взяты шкуры страуса, поверхностно-активные вещества (ПАВ), ферменты, соли, щелочи, кислоты, дубящие вещества, наполнители, кислотные красители, жирующие вещества и другие отделочные вещества, гольё шкуры страуса, кожи страуса хромового дубленая, образцы кожи «Краст» и готовой одежды кожей страуса.

Предметом исследования являются процесс ферментативного пикелевания, параметры процессов, технологические режимы, законы изменения параметров процессов обработки шкуры страуса.

